



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

ABU ALI IBN SINO VA JAHON ILM-FANI TARAQQIYOTI

Xabibullayeva Zarina

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti I- kurs talabasi

Annotatsiya. Oʻrta asr Sharqining buyuk qomusiy olimlaridan biri boʻlib, uning ilm-fan, tibbiyot, falsafa va taʼlim rivojiga qoʻshgan hissasi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim oʻrin egallaydi. Ayniqsa, uning “Tib qonunlari” asari Yevropa universitetlarida asrlar davomida asosiy darslik sifatida foydalanilgan. Ushbu maqolada Ibn Sinoning ilmiy merosi, uning jahon ilm-fani va madaniyatiga taʼsiri hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi.

Abstract. One of the great encyclopedic scholars of the medieval East, whose contributions to the development of science, medicine, philosophy, and education occupy an important place in the progress of world civilization. In particular, his work The Canon of Medicine was used as a main textbook in European universities for centuries. This article highlights Ibn Sina’s scientific heritage, his influence on world science and culture, as well as its significance in the present day.

Kalit soʻzlar: Ibn Sino, Abu Ali ibn Sino, jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan, tibbiyot, “Tib qonunlari”, falsafa, Sharq uygʻonish davri, Avitsenna, taʼlim-tarbiya, ilmiy meros, madaniyat taraqqiyoti.

Keywords: Ibn Sina, Abu Ali ibn Sina, world civilization, science, medicine, The Canon of Medicine, philosophy, Eastern Renaissance, Avicenna, education, scientific heritage, cultural development.

Kirish. Sharq uygʻonish davrida yashab ijod qilgan buyuk allomalar insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan. Ana shunday buyuk mutafakkirlardan biri Ibn Sino hisoblanadi. U nafaqat tabib, balki faylasuf, matematik, astronom, kimyogar va pedagog sifatida ham dunyo ilm-fani rivojiga katta taʼsir koʻrsatgan. Ibn Sinoning ilmiy qarashlari Sharq va Gʻarb ilmiy maktablari oʻrtasida muhim koʻprik vazifasini bajargan.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) falsafa, mantiq ruhshunoslik, adabiyotshunoslik, sheʼriyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng boʻlganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 85 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bagʻishlangan asarlar yaratgani maʼlum[5]. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini oʻrta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sino boʻlib, u Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlogʻida hijriy 370 (980) yilning safar oyida, amaldor oilasida tugʻildi. 986 yilda ibn Sino oilasi Buxoroga koʻchib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlangʻich maʼlumot olishga, ilm-fanni oʻrganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chogʻlari somoniylar hukmronligining soʻnggi yillariga, xususan Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–997) ga toʻgʻri keladi[1].

Ibn Sino erta bolalik chog'laridanoq qiziqqonligi bilan ajralib turar, kattalarni o'z savollari bilan qiynab yuborar edi. U avvaliga oddiy musulmon maktabida 10 yil davomida tahsil oldi. Maktab dasturidan tashqari Husayn qo'shimcha ravishda savodxonlik, arab tili, stilistikani o'rgandi. Husayn 10 yoshligida Qur'oni Karimni butunlay yod oldi, qori darjasiga erishdi.

Xorazmda yosh tabib ko'plab do'stlar ortirdi, ko'p o'tmay esa uning ustozlari Masihiy va Beruniy ham yetib keldilar. Mahalliy shahar hokimi saroyda olimlarning yig'ilishib, samarali muloqot qilishlariga izn berar va shu bilan ilm-fan rivojiga hissasini qo'shar edi.

Shu yo'sin Husayn va uning safdoshlari bir necha yillar davomida ilm-fan tadqiqotlari va ishlari bilan xotirjam shug'ullandilar.

U davrlarda inson tanasining tuzilishini o'rganish maqsadida o'lgan odamlarning jasadini yo'rish ta'qiqlangan edi. Bu qonunni buzgan inson o'lim jazosiga mahkum qilinardi, biroq Ibn Sino va Masihiy bu ishni xufyona qilib yurdilar. Biroz vaqt o'tgach, bu ikki olimni poytaxtga sulton huzuriga chaqirib qoldilar. Bunday chaqiruvlar olim va shoirlarni qatl qilish uchun uyushtirilar edi. O'lim daragini sezgan ikki tabib qochishga qaror qildilar. Ular cho'ldan yurib borar ekanlar, qum bo'roniga duch kelib qoldilar, yo'ldan adashib, suv va ovqatsiz qoldilar. Keksa yoshdagi Masihiy bunday og'ir sharoitga bardosh bera olmay vafot etdi, Ibn Sino esa bu qiyin sharoitni yengib o'ta oldi. U uzoq yillar davomida jahldor sulton qahridan qochib, berkinib yurdi, ismini o'zgartirib, ishini davom ettirdi va kitoblar yozdi.

Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Abu Ali ibn Sino (980-1037) Sharq va Obro'pada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi tufayli, «Shayh – Ur – Rais» Sharqda «Olimlar boshlig'i», Ovro'pada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino Ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruHshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim – tarbiya soHalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim[2].

Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'iladi. Uning to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husan, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich maktabda o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutolaasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo'lib hisoblanardi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan Hind Hisobi, fiqhdan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa,

mantiq, Handasa va boshqa fanlardan ta'lim oladi. Shundan so'ng ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim bergan kishi Buxorolik Abu Mansur Kamariy bo'ldi. Ibn Sino so'ngra falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning «Metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi. IX asr ohiri X asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli ibn Sino Xorazmga – Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Xorazmda o'zining yirik asarlari – «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitoblari ustida ish olib boradi.

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblارimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimizkerak”. Ibn Sino juda boy ilmiy hayot yo'lini bosib o'tdi. U yuksaklikka ko'tarildi, pastga ham tushdi. Vatandan qochib chiqib ketgan Ibn Sinoga o'z ona yurtiga qaytib kelish nasib etmadi, 1037 yilda begona yurtda vafot etdi. Buyuk ilm namoyondasi Hamaron shahrida dafn etildi, 8 oydan so'ng esa uning jasadi Isfahonga ko'chirib olib kelinib, shu yerga dafn etildi[4].

Abu Ali ibn Sino sermahsul ijodi, boy ilmiy merosi bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan allomadir. U o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ham yuqori mavqega erishdi. Hatto G'arb ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Alloma o'z davrida “Olimlar peshvosi” va “Tabiblar podshohi” kabi bir qancha unvonlarga sazovor bo'lgan. Ibn Sino asarlari G'arb mamlakatlarida XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilingan. Birgina “Tib qonunlari” asari lotinchada qirq marta to'liq holda nashr etilgan. Sharq va G'arbda Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asaridan 700 yil mobaynida tibbiyot sohasida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. “Kitobush shifo”ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, Yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga doir qismlari ham lotin tilida bosmadan chiqqan. Allomaning ilmiy ijodi, chuqur falsafiy mazmuni ifodalovchi ruboiylari Sharq adabiyotida qissalar janrining rivojlanishiga turtki bergan.

Jahon olimlari tomonidan Abu Ali ibn Sino asarlari, uning faoliyati bo'yicha hozirgacha muntazam ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo bo'ylab deyarli barcha tillarda alloma haqida asarlar bitilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Irisov A. “Abu Ali Ibn Sino. Hayoti va ijodiy merosi”. T. “Fan”.1980y.
2. Ergashovna, M. G., & Boybo'riyevna, F. U. (2025). EXPLORING CULTURAL DIFFERENCES IN HEADLINE WRITING IN THE ENGLISH AND UZBEK PRESS. *TADQIQOTLAR*, 76(1), 195-200.
3. Ergashovna, M. G. (2026). CHEVARCHILIK TERMINOLOGIYSIDA GIPERO-GIPONIMIK MUNOSABATLAR. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 53(1), 316-318.